



TALABALARDA ETNOMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURAT EKANLIGI

Isomiddinov Asliddin Baxridin o'gli
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllanishida professor-o'qituvchilarning shaxsiy namunasi, mamlakat siyosati va kasbiga bo'lgan fidoyiligi ham muhim ahamiyatga ega ekanligi, shu sababdan ular kasbiy mahorati va kompetensiyasini yuqoriligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishga intilishi lozimligi yoritilgan.*

Etnomadaniy kompetensiyaning shakllanishi bevosita talaba shaxsining individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istak va xohishlari zamirida paydo bo'lishi, talabalarda etnik qiziqish va maylini inobatga olish zarurligi, uning zamirida kasbiy kompetensiya ham rivojlanishi, o'zaro bog'liklikni ta'minlanishi pedagogik oliy ta'limda bo'lajak pedagoglar faoliyatini muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashligi, hamda talabalarda muvaffaqiyatga erishish mas'uliyati ham tarbiyalanishi lozimligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *etnik renessans, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy-pedagogik kompetensiya, etnomadaniy modernizatsiyalash, kompetensiya.*

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Исомиддинов Аслиддин Бахридин угли
Докторант Андижанского государственного университета

Ключевые слова: *этническое возрождение, компетентность, профессиональная компетентность, профессионально-педагогическая компетентность, этнокультурная модернизация, компетентность.*

Аннотация: *В данной статье поясняется, что личный пример профессоров, преданность политике страны и профессии также важны в формировании этнокультурной компетентности у студентов, и по этой причине они должны стремиться быть примером для студентов с их высокие профессиональные навыки и компетентность.*

Формирование этнокультурной компетентности непосредственно базируется на индивидуальных особенностях, интересах, личных пожеланиях и стремлениях обучающегося, необходимости учета этнического интереса и склонностей обучающихся, в основе его также лежит развитие профессиональной компетентности, а обеспечение взаимозависимости педагогического высшего образования В статье разъясняется, что необходимо





обеспечить успешность деятельности будущих педагогов, а также воспитывать у студентов ответственность за достижение успеха.

SOCIAL AND PEDAGOGICAL NEED TO FORM ETHNOCULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS

Isomiddinov Asliddin Bakhrudin o'g'li
Doctoral student of Andijan State University

Key words: *ethnic revival, competence, professional competence, professional-pedagogical competence, ethnocultural modernization, competence.*

Annotation: *This article emphasizes that in the formation of ethnocultural competence among students, it is important for teachers to be a personal example, to be loyal to the policy of the country and the profession, and therefore they should strive to be an example to students. their high professional skills and competence.*




The formation of ethno-cultural competence directly depends on the individual characteristics of the student, interests, personal desires and aspirations, the need to take into account the ethnic interests and inclinations of the student, as well as the development of professional competence. interdependence of pedagogical higher education. The article explains the need to ensure the success of future teachers, as well as the formation of students' sense of responsibility for success.


Ta'lim sifatini jahon standartiga moslashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun malakali intellektual salohiyati yuqori o'qituvchilarini tayyorlash, ularda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilmoqda.

Respublikamizda oliy ta'limni, jahon standarti darajasida yangi mazmun va yo'nalishda uzluksiz ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda.

Bo'lajak pedagoglar kompetensiyasi va pedagogik mahoratini shakllantirish mazmuni va texnologiyalari mamlakatimizning yetuk olimlari tomonidan chuqur tahlil qilingan. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar so'nggi yillarda yana ham jonlangan. Bu borada S.Turg'unov, B.Doniyorov, N.Turdiyev, Y.Asadov, Sh.Shodmonova, A.Xoliqov, M.T.Mirsoliyeva, N.Nuriddinova, M.Umaraliyeva, etnomadaniyat va uning mazmun-mohiyati A.Ashirova [1.-130 b.], N.Jo'rayeva [2-64b.]larning tadqiqot ishlari, metodik qo'llanmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bo'lajak pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi taxsil olayotgan pedagog kadrlarni kasbiy va etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning quyida keltirilgan jihatlarini qamrab oladi:

-  o'qituvchining pedagogik izlanishi va uni tashkil etish;
-  kasbiy pedagogik mahorat turlari;
-  didaktik izlanish metodikasi;





- ✚ tizimli-kompleks tashxisni amalga oshirish;
- ✚ umumta'lim maktablarida ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va uning mazmuni;
- ✚ oliy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik qobiliyatlarni namoyon qilishga nisbatan to'g'ri yondashuvni qaror toptirish;
- ✚ o'qituvchining didaktik jarayonning yaratuvchisi va moderatori sifatida faoliyat yuritishi;
- ✚ kolloborativ ijodkorlik;
- ✚ innovatsion pedagogik faoliyatning nazariy asoslari.

Bo'lajak pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalarida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish maqsadida doimiy ravishda mustaqil ta'lim olish, kelajakda pedagogik faoliyati davomida uzluksiz kasbiy ta'lim olishiga kirishishi uchun o'qituvchilarga qo'yilgan ijtimoiy talablarga har tomonlama mos keladigan ta'limiy muhit yaratilishi taqozo etiladi. Ushbu talablarning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- ta'limning turli shakl va vositalarini qo'llash;
- pedagogik faoliyatga tayyorlash;
- fan dasturlarini tahlil qilish, mutaxassislarni tayyorlashda umumkasbiy faoliyatni tashkil etish;
- fan dasturlarini takomillashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlarga uyg'unlashtirilgan ta'lim tamoyiliga asoslanish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyasining shakl va mazmunini rivojlantirish;
- raqobatli mehnat bozori talablariga mos keluvchi yuqori darajadagi mutaxassislarni tayyorlash;
- zamon talabi darajasida ta'limiy vaziyatlarni yaratish;
- boshlang'ich ta'limga mos zamonaviy axborot tarmog'iga asoslangan yagona tizimni yaratish;
- etnomadaniy kompetensiyaga oid to'plangan tajriba va natijalarni saralash;
- talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va kompetentlik darajasini tahlil qilish.

Etnomadaniy kompetensiya har bir shaxsning sifatlaridan biri bo'lib, ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi pedagoglarda muhim hisoblanadi. Chunki tez o'zgarayotgan ko'p millatli mamlakatimiz va butun dunyoda **etnik renessans** tendensiyasi hamda migrantlarning kengayishi barcha turdagi jumladan oliy ta'lim oldidagi dolzarb vazifa sanaladi. Bo'lajak pedagoglarni ko'p elatli muhitdagi hayotiy vaziyatlarga tayyorlash zarur.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi malakali kadrlarni tayyorlash bilan birga etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishdan iborat. Oliy ta'lim jarayoniga talaba yoshlarda etnomadaniyatni shakllantiruvchi bir mexanizm sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan millatlararo etnik munosabatni rivojlantiruvchi vosita ham hisoblanadi.





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida "jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash, turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish"³ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shunday ekan, mamlakatimiz ta'lim tizimi maqsadi, mazmuni va mohiyatiga yuqorida keltirilgan masalalarni singdirish lozim. Ilmiy manba va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, etnomadaniyat va etnokompetensiya tushunchasi mohiyati yetarlicha o'rganilmagan. Biroq ta'lim amaliyotida "kompetentlik" tushunchalaridan tez-tez foydalanilmoqda. Bu ta'lim mazmunini isloh qilish zarurati bilan uzviy bog'liq. Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"dan iborat.

Rosiyalik olimlar A.K.Markova [3-192c], N.V. Rudneva [4-20c] tomonidan kasbiy kompetensiya ta'limga qaratilgan ilmiy kategoriya sifatida aniqlanib, maxsus fan sifatida qo'llanila boshladi.


"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Shuningdek, "kompetentlik" tushunchasi faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish yuqori darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish deb talqin etiladi.

Kompetentlik bu- shaxsning tanlagan kasbi bo'yicha egallagan bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni amaliyotga qo'llay olishi qobiliyati, layoqati va kasbiy muammolarni mustaqil hal qila olishidir.

S.I.Ojegov fikricha, "kompetensiya biror sohani mukammal bilish, xabardorlik, o'z mutaxassisligi bilimga egalik"-deb ta'rif beradi [5-248c]. Olimning mulohazasiga ko'ra, kompetensiya mutaxassisning kasbiy vazifasi yoki huquqlari deyish mumkin. Pedagogika sohasi bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega fikri teran va ishonchli hisoblangan shaxs sifatidir.

³ Mirziyov Sh. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida farmon. T.: 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son.





Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma, malaka tushunchalaridan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi. Chunki ular shaxsning yo'nalganligi (motivatsiyasi, qadriyatlarining yo'nalishlari), uning stereotiplarini yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini; xarakterini, mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

So'nggi yillarda "kompetentlik" tushunchasi va uning tarkibiga kiruvchi kompetentliklar mazmunini aniqlatirish, pedagogik faoliyatni rivojlantirish muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu esa, ularni tasniflash muammosini yuzaga keltiradi. Zero, yuqorida aytilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda bilim olishga ehtiyoj, intilish paydo bo'lishi uchun ularda o'zini-o'zi baholash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi.


L.V.Zanina, N.P.Menshikovalarning fikricha, "**kasbiy-pedagogik kompetensiya**– ma'lum bir qadriyatlar, ideallar va pedagogik ongning sohibi sifatida pedagogik faoliyat, pedagogik muomala va o'qituvchi shaxsini shakllantirishni aniqlaydigan bilim, ko'nikmalar tizimiga egalikdir" [6-288c.;101]. Etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda mediamuhit va innovatsion jarayon yaratish ta'lim jarayonining asosiy talabi hisoblanadi. Chunki talabalar pedagogika va psixologiyaga doir yangiliklardan axborot maydoni orqali xabardor bo'ladilar.

M.A.Choshanov esa "kompetensiya" tushunchasini quyidagicha izohlaydi "kompetensiya-bu nafaqat bilimga ega bo'lish, balki uni muntazam yangilash va aniq sharoitlarda qo'llash istagi, ya'ni, tezkor bilimlar, eng maqbul va samarali yechimlarni tanlash shu bilan birga noto'g'ri mulohazalarni rad etish qobiliyatini anglatuvchi fikrlashning moslashuvchanligi va tanqidiyligi" [7-162 c]. ***Darhaqiqat talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarda milliy g'urur va iftixorni shakllantirishga erishish mumkin.***

S.I.Ojegov bu tushunchalarni quyidagicha ifodalaydi: "kompetentlik – biror sohani chuqur bilish, ko'p narsalardan xabardorlik, o'z mutaxassisligi bo'yicha katta e'tiborga moliklik; biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati" [8-578 c.]

Kasbiy kompetentlik bu mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma, malaka tushunchalaridan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi. Ular shaxsning yo'nalganligi motivatsiyasi, qadriyatlarining yo'nalishlari, stereotiplarni yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini qamrab oladi.

L.V.Zanina, N.P.Menshikovalarning ta'kidlashicha, "kompetensiya–bu ma'lum bir qadriyat, qarashlar va pedagogik ongning sohibi sifatida muloqot hamda pedagog shaxsini shakllantirishni aniqlaydigan bilim, ko'nikmalarga egalikdir" [9-288c. 101].





Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish uchun milliy g'urur va madaniyatni anglashga yo'naltirish zarur. Natijada ularda millatga sadoqat va muhabbat mustahkamlanadi.

M.A.Choshanov fikricha, "kompetensiya-bu nafaqat bilimni o'zlashtirish, balki uni doimiy yangilash, pedagogik vaziyatlarda qo'llash istagi, eng optimal, samarali yechimlarni saralash, fikrlarning moslashuvchanligi va tanqidiyligidir" [10-162 c.]. Ko'p millatli jamiyatda talabalar turlicha madaniy vaziyatga duch keladi, shunda ularda o'zining etnik xususiyatini saqlab qolishi va yashab turgan muhitiga moslashishi taqozo etiladi.

Biz tadqiqotimizda pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda etnomadaniyat va millatlararo muloqotning ustuvorligini ko'zda tutganmiz. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, kompetensiya aniq bir sohaga oid bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar deyish mumkin, kompetentlik esa o'zlashtirilgan bilimlarni faoliyatga tatbiq etishdan iborat. Ta'kidlash joizki, etnomadaniy kompetensiya boshqa turlari kabi umummadaniy kompetensiyaning tarkibiy qismini tashkil etadi. Pedagogik ta'limotlarda umummadaniy kompetensiya ma'lumotlilik darajasi, o'z-o'ziga ta'lim berish, o'zini anglash, madaniyat sohasidagi turli xil hodisa va voqelarga xos xulosa chiqarish, turli millat fuqarolari bilan munosabatga kirishish ekanligi ko'rsatilgan.

Etnomadaniy kompetensiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, "umummadaniy kompetentlik" sifatida etnomadaniyat va millatlararo o'zaro harakatlarga xos elementar savodxonlikda namoyon bo'ladi. Mazkur tushuncha integrativ jarayon bo'lib, pedagog-psixologlarning ham fuqaro ham pedagog sifatida kasbiy va shaxsiy sifatlari majmui deyish mumkin.

Etnomadaniy kompetensiya tarkibiga etnomadaniy bilimlar, tolerantlik, ya'ni turli millat vakillari bilan muloqot yuritish, boshqa millat vakillarining urf-odatlarini, an'analariga qiziqish, pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishda ko'p millatli jamiyatimiz siyosatini inobatga olish, millatlararo munosabatlarda turli vaziyatlarni yechimini topish qobiliyati kiradi. Bo'lajak pedagoglarda etnomadaniy kompetentlikni shakllantirishning tub mohiyati insoniy fazilat va shaxsiy sifatlar, yuqori potensial, madaniyatga xos bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyani egallashdan iborat.

Etnomadaniy kompetensiya-bu bo'lajak pedagoglarni millat madaniyati, tarixiga oid tajribalarni yosh avlodga yetkazish malakasini shakllantirishdir.

Etnomadaniy kompetensiya pedagogik-psixologik ijtimoiy hodisa shalaib, xalqning madaniyati, qadriyatlarini o'zlashtirish, nazariy va amaliy jihatdan tayyorlik, etnopedagogikani tamoyillarini bilish, tarbiya tizimini turli millatning milliy-psixologik xususiyatlarini anglagan holda amalga oshirishni nazarda tutadi.

T.V.Poshtarevaning fikricha, "etnomadaniy kompetensiya shaxs xususiyatlari bo'lib, millatlar madaniyati haqidagi tasavvurlar, bilim, ko'nikma va xulq-atvorni amalga oshirish hamda millatlarning o'ziga xos xususiyatlarini anglashdir" [11-180





c.]. Etnik bilimlar millatlarning o'zaro bir-birini hurmat qilishi va harakatini amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shuningdek, talabalarning o'z milliy madaniyati va qadriyatlarini o'zga millat madaniyati bilan taqqoslash, umummadaniy jarayonlarda etnomadaniyatning ahamiyatini anglash, etnomadaniy ongini shakllantirish, etnotsentrizm va shovinizm g'oyalariga qarshi immunitet, etno bag'rikenglik o'z-o'zini hurmat qilish va vatanparvarlik hissini rivojlantirishdan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'lim jarayonini sifatli tashkil qilish, samaradorlikni ta'minlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash, kasbiy kompetensiyani shakllantirish bilan bog'liq ko'plab masalalar o'rganilgan. Xususan, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari, tashkiliy-uslubiy jihatlari mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan.

N.Sh.Turdiyev va Y.M. Asadovlar "kompetentlilik", "kompetensiya" tushunchalariga quyidagicha tavsif beradilar: "Bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi; shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlarini; amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi; muammolarni bartaraf etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati; shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi; faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui; shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi". [12-160. 8].

B.B.Ma'murov tomonidan bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarining indiktorlari tizimlashtirilgan. [13- 66; 71-b.]. Bilim olish talabalarni harakati bilan amalga oshadi, ularning istaklari va tabiiy qiziqishlariga bog'liq bo'ladi.

Talabalarni hamkorlik faoliyatiga tayyorlash, unga nisbatan ehtiyoj, mayl, qiziqish va motivatsiyasi, muomalaga kirishish usullari, o'qituvchi bilan talabalarning o'zaro ta'sir o'tkazish shakllari N.Sh.Azimov tomonidan ilmiy asoslangan [14-15; 127-b.]. Talaba va pedagoglarning o'zaro munosabatida milliy qadriyat va etnomadaniyat muhim sanaladi. Talabalarda psixologik-pedagogik bilimlarni oshirish, etnik ko'nikma va tajribalarni shakllantirish ham maqsadga muvofiq.

Sh.A.Sodiqovanning tadqiqoti talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, omillari va mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan [15-88; 138-b.]. Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida ijobiy-ijtimoiy munosabatni o'rnatish, o'quv jarayonida faqatgina bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish ob'yekti emas, balki ularni shaxs sifatida rivojlantirishni ham ko'zda tutadi.

N.O.Jo'rayeva tomonidan etnomadaniyat asoslari, etnomadaniy jarayonlar va etnoetiket mazmuni, mohiyati tahlil etilgan [16-64 b.]. Etnomadaniy kompetensiya o'quv faoliyati jarayonida talaba shaxsida shaxsiy sifatlarni yanada rivojlantiradi. Uning ta'sirida yangi turdagi faoliyatlar paydo bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish ko'zda tutilgan edi. Umumiy pedagogika va psixologiya o'quv moduli mazmunida





etnik bilimlarni aks ettirilganligi o'rganish va natijalarni tahlil etish tadqiqotimizning asosiy yo'nalishi sifatida belgilab olindi.

Yuqorida sanab o'tilgan fikrlar asosida etnomadaniy kompetensiya negizini shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, etnik madaniyatga oid bilimlarni ifodalash, xulq-atvor me'yorlari hamda millatlararo aloqalarni samarali tashkil etishda har bir elatning o'ziga xosligini inobatga olish tashkil etadi.

Etnomadaniy kompetensiya har bir fuqaroning muhim sifati bo'lib, ayniqsa pedagog-psixologlarda shakllantirish zarur, chunki ular turli toifadagi shaxslar, insonlar bilan bevosita psixologik-pedagogik maslahatlar, korreksion, profilaktik ishlar olib boradi. Vaholanki buguni kunda yosh avlodda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish dolzarb hisoblanadi, sababi u ko'p millatli jamiyat hayotida asosiy rol ni o'ynaydi. Milliy mintalitetni rivojlantirish ham jamiyat ehtiyoji sirasiga kiradi, unda turli millatlar madaniyatining qadriyati, anʼanasi namoyon bo'ladi.

Sanab o'tilgan mulohazalar asosida tadqiqotimizning dolzarbligini asoslovchi holatlarni tavsiflashni joiz deb topdik.

- talabalar qaysidir bir millatning vakili sifatida ijtimoiy jamiyatda faoliyat yuritadi, ularda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish orqali shaxslararo munosabatni yaxshilash;

- o'quv-tarbiya jarayonida talabalarda etnopsixologik xususiyatlarni e'tiborga olish;

- millatlararo totuvlikni mustahaklashda talabalarning hissasini oshirish;

- talabalar orasida milliy madaniyatni shakllantirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida etnopedagogik yondashuvni amalga oshirish;

- migrant talabalarning qarashlari, o'zini tutishi, avval istiqomat qilgan ijtimoiy muhitdagi salbiy odatlarini bartaraf etish. Ularning yangi muhitga moslashishi, madaniyatni o'zlashtirishlarida professor-o'qituvchilarning ta'sirini oshirish.

Mazkur yondashuv har bir talabaning etnik bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir.

Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda kasbiy ehtiyoj, intilish paydo bo'lishi uchun ularda o'z-o'ziga baho berish va o'z-o'zini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, **“etnomadaniy kompetensiya”** tushunchasiga mualliflik ta'rifini keltiramiz: etnomadaniy kompetensiya talabalarni kelgusi faoliyatida psixologik-pedagogik vaziyatlarda milliy xususiyatga oid bilim, ko'nikma va malakalaridan oqilona foydalanish, pedagogik masalalarni hal etishda ta'lim oluvchilarga ta'sir etish metod va texnologiyalari hamda vositalaridan mohirona foydalana olish imkoniyatini beruvchi kasbiy fazilatlar majmuidir.

Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:





- o'quv-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash;

- millatga xos yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lish;

- millatlararo muloqot madaniyatini egallash;

- eng qulay samarali o'qitish usullari va vositalarini tanlay bilish;

- o'quv faoliyatini milliy manfaatlar maqsadiga muvofiq, ijodiy yondashgan holda tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish;


- tashabbuskorlik, mustaqillik va mas'uliyatlilik, har qanday muammoli vaziyatga tayyor turish va uni hal eta olish.

Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllanishida professor-o'qituvchilarning shaxsiy namunasi, mamlakat siyosati va kasbiga bo'lgan fidoyiligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ular kasbiy mahorati va kompetensiyasini yuqoriligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishga intilishi lozim.

Sanab o'tilgan fikrlar asosida etnomadaniy kompetensiyaning shakllanishi bevosita talaba shaxsining individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istak va xohishlari zamirida paydo bo'ladi deb xulosa qilish mumkin. Talabalarda etnik qiziqish va maylini inobatga olish zarur, uning zamirida kasbiy kompetensiya ham rivojlanadi. Ular orasida o'zaro bog'liklikni ta'minlanishi pedagogik oliy ta'limda bo'lajak pedagoglar faoliyatini muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Hamda talabalarda muvaffaqiyatga erishish mas'uliyati ham tarbiyalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Ashirova Etnologiya.T.:2014.-130 b.,
2. N.Jo'rayeva Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi. Vuxoro.:2018.-64 b.
3. A.K.Маркова [Маркова А. К. Психология труда учителя: Кн. для учителя. М.: Просвещение, 1993.-192 с.],
4. Н.В. Руднева "Формирование ключевых компетенций в процессе подготовки специалистов на факультете искусств". Автореф. Махачкала 2006-20с
5. Mirziyov Sh. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida farmon. T.: 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son.
6. С.И.Ожегов. Словарь русского языка.М.: 1999-248 с.
7. Занина Л.В, Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. - Ростов-на-Дону: "Феникс",2003.-288с.;101.
8. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка М.: 2010-578 с.
9. Занина Л.В, Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства.- Ростов-на-Дону: "Феникс", 2003.-288 с. 101.
10. Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения. -М.: 1996, -162 с.





11. Поштарева Т.В. Теория и практика формирования этнокультурной компетентности учащихся в полиэтнической образовательной среде: Монография. Ставрополь.- 2006-180 с.

12. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M. Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T.: 2015.-B 160. 8.

13. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: ped. fan. dok. ... avtoref. – Toshkent, 2018. – 71 b.Qarang: 66; 71-b.

14. Azimov N.Sh. O'qituvchi bilan talabalar hamkorlik faoliyatining dinamikasi: ped.fan.nom.... diss. – Toshkent, 1995. – 127 b.Qarang: 15; 127-b.

15. Sodiqova SH.A. "Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash:" ped.fan.nom. diss. - Toshkent, 2010.-139 b. Qarang: 88; 138-b.

16. Jo'rayeva N.O. Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi. Uslubiy qo'llanma. Buxoro.:2018- 64 b.

